

**G'olibjon OTAMURODOV,**

A.Avlonyi nomidagi milliy-tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi, p.f.f.d., (PhD) dotsent

E-mail: foni\_02\_03@mail.ru

Tel: +998977329994

Oliy ta'lismizini kadrularini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti dotsenti, p.f.f.d., (PhD) M.Innazarov taqrizi asosida

## **UZLUKSIZ KASBIY TA'LIMNI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR O'RNI**

Annotatsiya

Ushbu maqolada pedagoglarning doimiy ravishda yangi bilimlarni egallashlari, kasbiy va shaxsiy o'sishga intilishiga yuqori natijalarga erishishi uchun masofaviy ta'lismi texnologiyalarini o'rni va ahamiyati, axborot kommunikatsiya texnologiyalarining roli yuqori ekanligini tushunishadi.

**Kalit so'zlar:** Uzluksiz kasbiy ta'lismi, o'qituvchi, zamonaviy pedagog, kommunikativ.

## **РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ НЕПРЕРЫВНЫМ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫМ ОБРАЗОВАНИЕМ**

Аннотация

В данной статье педагоги понимают необходимость информационных технологий для достижения высоких результатов в своем стремлении к постоянному обучению, профессиональному и личностному росту.

**Ключевые слова:** Непрерывное профессиональное образование, педагог, современный педагог, коммуникативная.

## **THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN CONTINUING VOCATIONAL EDUCATION MANAGEMENT**

Annotation

In this article, pedagogues understand the need for information technology to achieve high results in their pursuit of constant learning, professional and personal growth.

**Key words:** Continuing professional education, teacher, modern pedagogue, communicative.

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lismi kadrler tayyorlash tizimining asosi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning, ilmiy-teknikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha bo'lib, ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxsnинг shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarning jadal tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Darhaqiqat, uzluksiz ta'lismi jarayoni shaxsnинг har tomonlama qaror topishi uchun eng qulay davr sanaladi. Mazkur davrda shaxs fan asoslari hamda kasbhunar ma'lumotlarini o'zlashtiradi, yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega shaxs va malakali kadr sifatida kamol topib boradi. Unda muayyan dunyoqarash shakllanadi. Ma'lumki, ta'lismi – tarbiya insonga borliqni anglish sir asrorlarini tushunish, tinimsiz rivojlanayotgan dunyoga moslashish, dunyoqarashini shakllantirish, nihoyat, jamiyatni insonparvarlantirishga hissa qo'shish imkonini yaratadi. Har qanday davlatning qudrati va rivojlanish darajasini aynan ta'lismi tizimi aniqlab beradi. Davlatning ushbu tizimga munosabati, uning kelajagini belgilaydi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lismi quyidagi ta'lismi turlarini o'z ichiga oladi:

- maktabgacha ta'lismi;
- umumiyo'rta, o'rta maxsus ta'limi;
- professional ta'lismi;
- oliy ta'lismi;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lismi;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lismi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lismi tizimining bunday turlarining har bir bosqichida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bunday ishlarni tarixan qisqa davr uchun misli ko'rilmagan rivojlanish sifatida baholash mumkin. Bunday shiddatli rivojlanish bugungi kun uchun yetarlidek ko'rinadi. Lekin, har qanday yangilik boshqa yangilikning kirib kelishiga turki bo'ladi [6].

Hayot davomida ta'lismi olish zamonaviy jamiyatning asosiy tendensiylaridan birdir. Bu insonning doimiy ravishda yangi bilim olishga, kasbiy va shaxsiy o'sishga intilishiga zamin hisoblanadi. 70-yillarda hayot davomida ta'lismi olish g'oyasi konsepsiya aylanganda, uning realizmi jahon hamjamiyatida ko'plab shubhalarni keltirib chiqardi. 1972-yilda UNESCOning tashabbusi bilan Fransiyaning sobiq bosh vaziri va ta'lismi vaziri Edgar For qilgan ma'ruzasi rezonans bo'ldi. Ta'lismi rivojlantirish bo'yicha xalqaro komissiyasi "Yashashga o'rganish" hujjatida uzluksiz ta'lismi shaxs va jamiyat rivojlanishining eng muhim konsepsiysi deb e'lon qilgan. Muallif ushbu g'oyani dunyoning barcha mamlakatlarida ta'lismi rivojlanishda asos sifatida qabul qilishni taklif qilgan va bu taklif qattiq tanqidga uchragan.

UNESCOning XXI asr ta'lismi bo'yicha xalqaro komissiyasini boshqargan Jak Delor 1996-yilda Edgar Forning g'oyasiga yana uchta jihatni qo'shdi: bilim olishni o'rganish, ishlashni o'rganish va hamkorlikda yashashni o'rganish. Delor g'oyalarini UNESCOning navbatdagi 2005-yil e'lon qilingan "Bilim jamiyatlarini tomon" jahon hisobotiga kiritilgan. Hujjatda Delorning "har bir insonning umri davomida ta'lismi olish imkoniyatini ta'minlash uchun vaqt ajratish" bo'yicha taklifi ham qayd etilgan [5].

Shundan so'ng hayot davomida ta'lismi olish konsepsiysi XXI asrning boshida faol qo'llanila boshlandi. Masalan, 2003-yilda Microsoft kompaniyasi butun dunyo bo'ylab kompyuter savodxonligi darajasini oshirish maqsadida Unlimited Potential global ijtimoiy dasturini ishga tushirdi. Barcha turdag'i ta'lismi muassasalarini va markazlarida barchaga yangi raqamli ko'nikmalarga ega bo'lish imkoniyati yaratildi. Texnologik va biznes jarayonlarning jadal formatsiyasi sharoitida axborot texnologiyalari asoslarini bilish, ulardan foydalish va ular yordamida o'rganish qobiliyati nihoyatda zarur bo'lib bormoqda. Innovatsiyalar, moslashuvchanlik va doimiy o'zgarishlarga tayyorgarlik mehnat bozorining kuchli raqobatdosh ustunliklari hisoblanadi. Bugungi kunda barcha soha rahbarlari o'z tashkilotida, o'z xodimlarini doimiy ravishda ta'lismi olishi va yuqori natijalarga erishishi uchun axborot texnologiyalarisiz mumkin emasligini tushunishadi. Bu bir tomonlama jarayon emas: pedagoglar ham tizimli ravishda yangi bilim va ko'nikmalarini egallashga tayyor bo'lishi kerak bo'ladi.

Hayot davomida ta'lismi olishning afzalliklari:

- o'z kasbiy qobiliyatlarini rivojlanishish ish joyidagi shaxsiy samaradorlikni oshiradi;

- uzlusiz kasbiy rivojlanish ta'limda bo'layotgan islohotlar va o'zgarishlar haqida vaqtida xabardor bo'lishi va kasbiy yuksalishiga yordam beradi;
- o'z kasbiy ehtiyojlari asosida bilimlarni o'zlashtirish, pedagogik mahoratini oshirish va psixologik rivojlanishida muhim ahamiyatga ega;
- hayot davomida ta'lim olish xodimlarga o'z kasbiy sohalaridagi tendensiyalardan xabardor bo'lishga yordam beradi, bu esa raqobatbardosh mutaxassis bo'lish uchun muhimdir.

Jahon Iqtisodiy Forumi – 2020 hisobotida aytilishicha, to'rt yildan keyin mehnat bozori tanqidiy fikrlash va tahlil qilish, stressga chidamlilik, moslashuvchanlik kabi kompetensiyalarga ega bo'lgan xodimlarga talab yuqori bo'ladi. Ko'pgina tadqiqotchilar bunga qiziquvchanlikni ham qo'shadilar.

Zamonaviy dunyoda o'quv dasturlarini kasbiy kompetensiyalarga kengroq e'tibor qaratgan holda tuzish talab etiladi. Bizda fan o'qituvchilar bor, ammo tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi, o'zaro samarali munosabatlarni o'rnatuvchi kreativ fikrlovchi o'qituvchilar kam. O'quv dasturlari avvalo bu ko'nikmalarini an'anaviy fanlar doirasida o'qitishni singdirishni, so'ngra bosqichma-bosqich fan mazmunidan o'quvchilarning malaka va shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishga o'tishi kerak.

Hozirda an'anaviy o'qitish usullarining o'rnini loyiha va muammoli ta'limga asoslangan yondashuvlar asta-sekin egallay boshladi. Bu "o'rganishni o'rgatish" tushunchasini ham o'z ichiga oladi. Bu haqdagi fikrlar o'tgan asrning 80-yillardan beri davom etmoqda, ammo hozir bu shoshilinch ehtiyojga aylandi.

Biz yoshlarga o'z-o'zini tarbiyalash, mustaqil o'rganish ko'nikmalarini o'rgatishimiz kerak – buning uchun avvalo maktab o'qituvchilar ham faol bo'lishi hamda o'z ustida muntazam ishalashi kerak bo'ladi.

"Uzlusiz kasbiy ta'lim" elektron platformasi orqali maktab ta'limi tizimida faoliyat olib borayotgan xodimlar malakasini oshirishda tashkil etilgan dastlabki kurslar dasturi tinglovchilarining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tuzildi. Bu kurslar zamonaviy pedagog va XXI asrda faoliyat yuritishga qobiliyatli mutaxassisni rivojlantirish maqsadida doimiy takomillashib borishi ko'zda tutilgan.

2016-yilda Davosda bo'lib o'tgan Jahon iqtisodiy forumida ma'ruzachilar zamonaviy mehnat bozorida talab qilinadigan asosiy ko'nikmalarini aytib o'tdilar, ular:

- har bir mutaxassis uchun zarur bo'lgan kasbiy ko'nikmalar – hard skills
- raqamlar orqali baholash qiyin bo'lgan moslashuvchanlik ko'nikmalari – soft skillsga ajratadilar.

Xalqaro kasbiy kompetentlik modelida keltirilgan ko'nikmalarini inobatga olgan holda, "Uzlusiz kasbiy ta'lim" elektron

platformasi onlaysan malaka oshirish kurslarida:

- Pedagogning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish;
- AKT va media savodxonlik;
- O'zini-o'zi rivojlantirish va uzlusiz kasbiy rivojlanish masalalari;
- Pedagog mas'uliyati va moslashuvchanligi;
- Inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari modullarida soft skills rivojlantirilsa,
- Fandagi yangiliklar, fanni o'qitishning dolzarb masalalari;
- O'quvchilar kompetensiyalarini baholash usullari va vositalari modullarida esa kasbiy ko'nikmalarini ya'ni hard skills rivojlantiriladi.

Yaqin yillar ichida tadqiqotchilarimizning yangi avlodni bu soha samaradorligini yanada oshiradi. Oldindan kompetensiyalarni aniqlash va baholashning yangi usullarini ishlab chiqish, yangi vazifalarni izlash, konsepsiyanı qo'llashning yangi yo'nalishlarini tatbiq etish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

- "tas-ix"da joylashtirilgani va personal kompyuter bilan birga mobil telefon orqali (Android, iOS) kirish;
- mustaqil onlaysan ro'yxatdan o'tish va malaka oshirish;
- har bir tinglovchining shaxsiy kabineti;
- malaka oshirishni boshlashdan oldin kasbiy kompetensiyalar bo'yicha diagnostikadan o'tish;
- diagnostika natijalariga asosan individual kasbiy rivojlanish traektoriyasining shakllanishi;
- individual traektoriyaga asosan platforma tomonidan ehtiyojga asoslangan kurslarning taklif etilishi;

- har bir kursdagi alohida mavzu bo'yicha videodars, taqdimot, adabiyotlar mavjudligi;
- har bir mavzudan keyin o'zlashtirish darajasini aniqlash imkoniyati (agarda tinglovchi ma'lum mavzuni o'zlashtirishi past bo'sha keyingi mavzular ochilmaydi va qayta o'zlashtirish imkoniyati beriladi);
- rahbar va mutaxassislar kamida 30 soat (15 kredit), pedagoglar 36 soat (18 kredit) malaka oshirishdan o'tgandan keyin malaka oshirganlik to'g'risidagi elektron sertifikat;
- har bir tinglovchining natijalaridan kelib chiqib shaxsiy portfoliosi shakllanishi;
- muqobil malaka oshirish shakllaridan foydalanish uchun muayyan kredit toplash imkoniyati;
- malaka oshirish davrida turli vebinarlarda cheklanmagan vaqtida cheklanmagan sondagi tinglovchilar ishtirok etishi (bunda tinglovchi onlayn vebinarda ishtirok etmasa vebinarning arxivini ko'rishi mumkin);
- vebinlar o'tkazish paytida turli onlayn so'rovnomalar o'tkazish imkoniyati;
- yaratilgan kurslar sifatini baholash (5 balli tizimda);
- tinglovchilar va tyutorlar o'rtasida o'zaro muloqot qilish va fayl almashtish;
- tinglovchilar tomonidan o'zlarining mualliflik kurslarini joylashtirish va boshqa tinglovchilarga o'rtoqlashish;
- malaka oshirish tizimini yanada rivojlantirish va sifat darajasini oshirish maqsadida monitoring tizimi, ya'ni respublika, hudud, maktab direktori, fan metodisti o'zlarining pedagoglarini bilim va ko'nikmalarini monitoring qilish va kerakli ko'rsatmalar berish imkoniyati mavjudligi;
- kurs kontentlarini yanada rivojlantirish maqsadida har bir kursda individual so'rovnomasi va baholash tizimining mavjudligi hamda qulayligi xalq ta'limi tizimida "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasida onlayn malaka oshirmoqchi bo'lgan talabgorlar ko'paymoqda va yaqin kelajakda bu sohada yanada ko'proq yutuqlarga erishamiz.

"Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasi innovatsion ish, bu kichik bir qadam, ammo u rivojlanishda davom etadigan butunlay yangi ilmiy yo'nalishni ochdi. Umid qilamizki, 3-5-yil ichida "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasida onlayn malaka oshirish orqali XXI asr ko'nikmalarini o'rgatishning yangi yondashuvlari hozirgilaridan samaraliroq tarzda maktab ta'limi tizimida ijobiy natijalarda aks etadi.

O'qituvchilar nega malaka oshirishlari kerak?

Rotterdamlik Erazm bundan 500 yil oldin "o'rganishdagi biinch qadam o'qituvchiga bo'lgan munosabatdan boshlanadi", "o'quvchilar yaxshi ko'rgan ustozlarida yaxshiroq o'qishadi", deb yozgan. Zamondoshimiz avstralaliyalik professor, "Make Learning Visible" nomli mashhur kitob muallifi Jon Xetti 800 xil xalqaro tadqiqotlar tahlili asosida o'quvchilarining muvaffaqiyatini na sinfdagi bolalar soni, na sinf xonalarining jihozlanishi, na dars davomiyligi aniqlaydi, uni aniqlovchi asosiy omil o'qituvchidir degan xulosaga keladi.

O'qituvchining vazifasi bolada uning hayotiy energiyasi, bilimli bo'lish, bilimlarini o'ziga moslashtirish va qo'llash istagini qo'llab-quvvatlashdir. O'quvchida o'qish, o'rganish istagi majburan shakllantirilmaydi, faqat o'qituvchisining unga bo'lgan ishonchini his qilganda uyg'onadi. Yangi bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish faqat shaxsiy misol bilan ifodalanadi va o'quvchilar o'qituvchining o'zi ularga o'qitilayotgan fanni yaxshi ko'rishi shubhasiz his qilishadi.

Zamonaviy o'qituvchi – bu barcha javoblarni biladigan emas, balki o'ziga doimiy ravishda yangi savollar beradigan, o'z ustida ishlaydigan, muntazam malakasini oshirib boradigan kishidir. Malaka oshirish kurslarida o'qishning bir qancha sabablar bo'lishi mumkin, ammo ularni shartli ravishda ikki guruhga bo'lamiz [4].

Ichki sabablar. O'qituvchi o'z malakasi darajasidan qoniqmagan va o'zi o'qitayotgan fanni o'quvchilarga yetkazib berishda mahorat va ko'nikmalar yetishmasligini his qilganida.

Tashqi sabablar. Ko'pincha maktabda o'qituvchidan malaka oshirish sertifikati talab qilinadi, shunda u o'z lavozimini saqlab qolishi yoki lavozimga ko'tarilishi uchun malaka oshirish kursida o'qishga keladi.

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, ko'pincha o'qituvchilar malaka oshirish kurslariga majburan kelishadi, ularga mustaqil ravishda boradiganlar afsuski ko'p emas.

Xodimlarning malakasini oshirishning alohida ahamiyatga ega bo'lgan to'rtta asosiy sababi mavjud:

- Axborot asri – tez texnologik o'zgarishlar.
- Mehnatga bo'lgan talablarining o'zgarishi.
- Ko'nikmalarining yetishmasligi.
- Doimiy tashkiliy o'zgarishlar.

Dunyo juda tez rivojlanmoqda, shuning uchun zamonaviy insonning eng muhim ko'nikmalaridan biri bu hayot davomida ta'lim olish qobiliyatidir.

Uning asoslari maktabda qo'yiladi va o'qituvchi bu nuqtai nazardan bolalar uchun eng muhim namunadir, chunki o'qituvchi qanday o'rganishni o'rgatadi.

Malaka oshirish o'qituvchining zamonaviy gadjetlardan foydalanish, sinfdagi faoliyatni boshqarish, nizolarni oqilona va adolatli hal qilish mahorati kabi kompetensiyalarini rivojlantiradi. Bularning barchasini o'qituvchilar uchun tashkil etiladigan malaka oshirishning an'anaviy, masofaviy, dual shuningdek eng zamonaviy va dolzarb bo'lgan onlayn shakllarida o'rganish imkoniyatiga ega.

## ADABIYOTLAR

1. Раджиев А.Б. Современные подходы к организации профессионального развития работников народного образования // Ученый XXI века / №1, 2020/ ISSN 2410-3586.
2. G'.Otamurodov, E.Alkarov, B.Xurramov, "Analysis of professional development processes and opportunities of the system of continuous professional development" // International Conference on Advance Education (ICAE-22) 28th July 2022, Istanbul, Turkey.
3. E.Alkarov, F.Karimov "Xalq ta'limi tizimiga mediasavodxonlikni joriy etish jarayoni va istiqbollari" // Pedagoglar malakasini oshirish tizimiga innovatsion yondashuv: Xalqaro tajribalar va rivojlanish istiqbollari. 6-7 aprel. Toshkent-2022 B-5-7.
4. D.R.Ibrohim, N.R.Ashurov "Zamonaviy o'qituvchi va uning obrazi" Academic research in educational sciences volume 2 | ISSUE 9 | 2021. ISSN: 2181-1385. DOI: 10.24412/2181-1385-2021-9-528-533.
5. X.B.Buriyeva "Uzluksiz kasbiy ta'limni boshqarishni nazariy asoslari" Innovative Development in Educational Activities ISSN: 2181-3523 volume 2 | ISSUE 9 | 2023.

6. B.Sobirov “Uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirishda pedagogik innovatsiyalar va integatsiyaviy yondashuv” Pedagogik ta’lim klasteri: muammo va yechimlar. International Conference. Chirchik, Uzbekistan. Б.1519-1525
7. A.Avlonyi nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti web sayti <http://www.avloniy.uz>
8. “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasi <http://www.onlinedu.uz>